

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.I.Rustamova	
Abdulla Qahhorning "Sarob" romanida detallar funksiyasi va dinamikasi	770
G.H.Oxunova	
Badiiy obraz borliqni anglash omili sifatida (Isajon Sulton hikoyalari misolida)	773
G.M.Oripova, F.A.Rahmataliyeva	
Xokku she'riy janrida inson va tabiat tasviri	778
G.Muhammadjonova	
Erkin Vohidovning hajviy asarlarida davr muammolari	782
Sh.D.Maxmidjonov	
Badiiy nutq tiplari va qahramon ruhiy olami talqini (Tohir Malikning asarlari misolida)	787
M.M.Xamidov	
O'zbek adabiyotida tarixiy obraz va uning ifoda usuli	791
O.A.Ahmadjonova, Sh.D.Ma'murova	
Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida til o'rganish masalasi va milliy til qadri	795
X.A.Abdulxamidova	
Isajon Sulton romanlarida inson xronotop sifatida	799
J.B.Sayidolimov	
"Makorim ul-axloq" agiografik asar namunasi	803
G.M.Oripova, G.G'.Axmadaliyeva	
Said Ahmadning hikoyanavislik mahorati ("Qorako'z majnun" hikoyasi misolida)	808
I.S.Mannopov, B.D.Rajavaliyev	
"Devoni hikmat"da ishq va oshiqlik talqini	812
S.F.Komilova	
Xalq dostonlarida do'stlik obrazi talqini	817
O.A.Ahmadjonova	
Asqad Muxtorning ayollar psixologiyasini yoritishda uslubiy o'ziga xosligi	820
A.A.Abduraxmonov	
O'zbek lirikasida nurning poetik funksiyasi	824
X.A.Abdulxamidova, G.Sh.Shodiyeva	
"Kutilgan kun" hikoyasida badiiy psixologizm	828

TILSHUNOSLIK

S.N.Fazildinova	
"Farhod va Shirin" dostoni nasriy bayonidagi tasvir vositalarining ifodalanishi	831
N.K.Ergasheva	
Goals and objectives of the training practice	835
O.A.Axmedova	
Nofilologik oliy o'quv yurtlarida ingliz tili terminalogiyasini o'qitishning nazariy asoslari	838
Sh.B.Karimova	
O'zbek tilida kvantitativlikning lug'aviy ifodasi	841
A.U.Akhmedova	
Challenges of using only traditional methods in teaching foreign languages	844
A.U.Akhmedova	
The effects of contemporary teaching methods in teaching foreign languages	850
D.Ganieva, F.Khamidov	
The comparative analysis of internet discourse in Uzbek, Russian and English languages	855
Ш.Аскарова	
Сущность языковой интерференции при изучении Немецкого языка	859
S.Kh.Azimova	
The stages of development of the theory of intercultural pragmatics in linguistics	863
E.B.Yagyaeva	
Talabalar mustaqil ta'limining mohiyati, tuzilmasi va vazifasi	867
E.B.Yagyaeva	
Ingliz tili o'qitish jarayonida talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar	870



УДК: 821.512.133.

“KUTILGAN KUN” HIKOYASIDA BADIY PSIXOLOGIZM

ДУХОВНАЯ ПСИХОЛОГИЯ В ИСТОРИИ “ОЖИДАННЫЙ ДЕНЬ”

SPIRITUAL PSYCHOLOGY IN THE STORY “THE EXPECTED DAY”

Abdulxamidova Xikmatoy Axrorjonovna¹ ¹Farg'ona davlat universiteti adabiyotshunoslik kafedrası kata o'qituvchisi, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhDShodiyeva Gulzoda Shoirjonovna²²Farg'ona davlat universiteti, filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada yozuvchi Luqmon Bo'rixonning “Kutilgan kun” hikoyasida qahramonlar holatidagi Badiiy psixologizmdan foydalanish mahorati tahlil etiladi.

Аннотация

В данной статье исследуется уникальная роль психической психологии в ситуации героев истории «Ожиданный день» писателя Луqmана Борихона. Анализируется умение автора использовать духовную психологию при описании состояния и внутреннего мира героя.

Abstract

In this article, the unique role of mental psychology in the situation of the characters in the story “The expected day” by the writer Luqman Borikhon is studied. The author's ability to use spiritual psychology in describing the state and inner world of the hero is analyzed.

Kalit so'zlar: Hikoya, janr, asar, badiiy psixologizm**Ключевые слова:** История, жанр, произведение, духовная психология.**Key words:** Story, genre, work, spiritual psychology

KIRISH

Hikoya — badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladigan nasriy asar. Jahon adabiyotida hikoya qadim an'analarga ega. O'tmishda hikoya folklor asarlari tarkibida bayon unsuri bo'lib ishtirok etgan. Mustaqil janr sifatida faqat yozma adabiyotda shakllangan. [1]

Endigina oila qurgan yosh bir o'zbek oilasining hayotidan kichik bir lavha tasvirlangan Luqmon Bo'rixonning “Kutilgan kun” hikoyasi hajm jihatdan kichik bo'lsa-da unda qo'llangan o'xshatishlar, badiiy tasvir vositalari, g'oya va mazmun, ramz va timsollar yuksak baholashga loyiq. “Boyxon bu kunni ilhaq kutgan edi. Uzoq dashtda uloqib qolgan, biror o'tkinchi sharpaga umidvor ko'z tikkan yo'lovchidan ham u shu kunga muhtoj edi”. Avvalo, dasht so'zining lug'aviy ma'nosiga qaraylik.

“Dasht- qora va kashtan tuproqlarda chim hosil qiluvchi g'alla gulli o't o'simliklari o'sadigan zonali landshaft tipi. Ekilmay yotgan suvsiz yer; cho'l. Keng, ochiq maydon; dala” [5, 215]

Odatda, badiiy asarlarda bir narsadan umid qilgan, kutgan obrazlar cho'l yoki sahrolardagi ochiqqan, tashna qolgan yo'lovchilarga o'xshatiladi. Chunki, sahro- yo'qlik, sarob timsolidir. Sahroda na bir g'iyoh, na bir daraxt o'sadi. Sahroda inson qiyalishga mahkum. Yo'qchilik, hijron, ayriliq, sog'inchning shirin azobini totishga majbur. Lekin nima uchundir yozuvchi o'z qahramonini cho'lda yoki sahroda emas, aynan dashtda deya ta'riflamogda. Bunda, albatta, majoziy ma'nolar yashirin. Dasht so'zining yonida uzoq so'zi ham birga berilmoqda. Bu dasht nimadan uzoq bo'lishi mumkin? Balkim bu dasht insoniylikdan, ma'rifatdan, balki, bu hayotdagi asosiy maqsadini unutib, oddiy inson o'laroq yashashni ham unutgan, o'zidan ham uzoqlashib ketgan bir insonning

ADABIYOTSHUNOSLIK

timsolidek talqin qilish mumkin. Bu xuddi Boyxon obrazi taqdiriga monandir. Qahramon zamon va makon, muhit ta'siri bilan o'zgarib qolmagan. Hayotini o'zgartirib yuborgulik biron hodisa ham bo'lgani yo'q. Ammo, eng katta kurash insonning o'z ichida, o'zi bilan bo'ladigan kurashidir. Bu kurashlarning eng kattasi, eng qiyinidir. O'z ichida adashib qolgan, o'zini topa olmayotgan qahramon atrofga umid to'la ko'zlar bilan boqmoqda. Demak, u hali o'zligini yo'qotgani yo'q. Hali o'zgarishga umidi bor. "U la'nati shu ichkilikbozlikni tashlashga necha marta so'z berar, lekin uch-to'rt kun o'tmasdanoq, "o'zi bilmay" yana eski qasamga aylanib- uyiga odatdagidek chayqalganicha kirib kelar, boshini xam qilgan ko'yi kekka onasining beozorgina noliqlarini tinglar edi". Boyxon qilayotgan ishi va tutayotgan yo'li xato ekanini ongli inson o'laroq anglab yetmoqda. Faqat yaxshi tarafga o'zgarish uchun o'z kuchi, jasorati kamlik qilyapti, irodasi yetmayapti. Shuning uchun dashtda bo'lsa ham kimdandir yordam kutyapti. "Boyxon bu kunni ixlos bilan kutgandi. Go'yo bu kun u bir yumalab boshqa xil odamga aylanib qoladiganday, jikkak, tajang Boyxonning o'mida etli-so'lli kelishgan Boyxon taltayib turadiganday edi". Garchi qahramon uzoq dashtda yo'qolib qolgani aytilsa ham, o'quvchi uni dashtda qolib ketgan obraz sifatida emas, shu dashtdan chiqishga urinayotgan personaj sifatida ko'radi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Hikoyada qahramonning ruhiy holatiga oid so'zlar uning asar davomidagi dramatik harakatlari, mimikalarida yaqqol ko'rinadi. Buni quyidagi o'rinlarda ko'rishimiz mumkin: "Boyxon tanasi taram-taram bo'lib ketgan daraxtga behol suyanib, chuqur-chuqur nafas oldi". Chuqur-chuqur nafas olish holati qahramonning turli xil holatlarda ekanligini ifodalashi mumkin. Masalan, qo'rqish, hadiksirash, xavotir va hokazo. Boyxonning ruhiyatida esa bu holatlarning barchasi umumlashib namoyon bo'lmoqda. "Boyxonning yuragi uvishdi. Barcha qilmishlari ko'z oldidan ayqash-uyqush bo'lib o'tdi-yu ko'ngli g'ashlandi". Uvishmoq- qonning yaxshi (me'yoriy) yurishmasligi sababli karaxt holatli bo'lmoq (asosan, oyoq, qo'l haqida). Karaxt holatda bo'lish bu sezmaslik demakdir. Demak, Boyxon hayotida va ichki olamida bo'layotgan hodisalar tufayli karaxt holatda. Uning karaxt holatda deb berilishi harakatda emasligiga, o'zgarish uchun urinmayotganiga dalolat beradi. Ammo gapning davomida yuragi g'ashlandi deya qo'shimcha qilinadi. Boyxon karaxt holatda bo'lsa ham bu holatining yaxshi emasligini aqlan bilib turibdi. O'zgarishi kerakligini, hayotida yangilik qilishi lozim ekanligini sezyapti. Va eng muhimi, hozirgi holatining xato ekanligini ongli inson sifatida anglanmoqda. Shuning uchun ham karaxt holatida bo'lsa ham uning yuragi g'ashlanmoqda. Bu o'zgarish uchun qilinayotgan yoki qilinishi kutilayotgan ilk qadamdir. "Boyxon mast chog'lari negadir ko'proq iymonar edi". Aslini olganda, mast odamda iymonish holatining kuzatilishi ajablanarli hol. Chunki inson mast bo'lganda ko'p hollarda o'zini, o'zligini bilmaydi. O'zini odatdagi holatidan boshqacha tutadi. Bu qo'rslik, jasurlik, saxovatlik va boshqa holatlar bo'lishi mumkin. Ammo Boyxonda negadir bu holatlarning hech qaysi ko'rinmayapti. Aksincha, u mast bo'lib kelganida ko'proq uyarmoqda. Turmush o'rtog'ining oldidagi vazifalarini bajara olmayotgani, unga yaxshi hayot yaratib bermayotgani uchun o'zini aybdor sanamoqda. "Ba'zan Boyxonning o'z-o'zidan zavqi jo'shar, kelinchakni erkalagisi, mehribonliklar ko'rsatgisi kelar, lekin bunga jur'at etolmas, to'g'rirog'i, bu xil yaqinlikka o'zini mutlaqo haqsiz deb hisoblar, butun bor-yo'g'i, yurish-turishi bilan xotini oldida o'zini muttahaamday his etardi". Erta-yu kech qora terga botib mardikorlikdan topgan pulini ichkilikka sarflagani uchun Boyxon hatto turmush o'rtog'ining yaxshi muomalasiga ham, unga yaxshi muomala qilishiga o'zini munosib deb bilmayapti. Hatto mast holatida ham u o'zini o'zi koyimoqda. Mast holatida shunchalik o'zini aybdor his qilayotgan ekan, boshqa paytlarda qahramonning qanday ahvolda ekanligi haqida mushohada yuritaylik.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yozuvchi bizning oldimizga ko'pchilik erkaklarga o'xshab, mast bo'lganida butun alamini ayolidan oladigan pastkash erkakni emas, turmush o'rtog'i oldida o'zini aybdor his qiladigan erkakni qo'yimoqda. "Sochini chiroyli turmaklab, durracha bilan tang'ib olgan xotini o'sha o'rik daraxtining shoxlariga kir yoymoqda edi. Durrachasi tagidan chiqib turgan, shamolda hilpirayotgan uzun-uzun soch tolalariga daraxtning nurdek ingichka bir shoxi go'yo o'pmoqchiday ohista-ohista silanar, kelinchak esa shirin-shakar xayollar og'ushida zavqlanib betinim iljayardi. Boyxon bu xush manzarani to'rt-besh daqiqa- to unga xotining ko'zi tushgunicha tomosha qilib turarkan, nogoh dimog'iga gup etib o'rik gullarining ifori urilgandek tuyuldi. Boshi aylanib ketdi. Xotini u tomon ilkis nazar tashladi-yu, ikkovlari baravar iljaydilar. Bu ularning bir-biriga birinchi samimiy tabassumi edi".

Boyxonning ayoli bilan bir-birlariga qilgan ilk tabassumini olaylik. Birgina tabassum orqali u o'ziga "Odamsifat bo'lishim kerak" deya tanbeh bera boshladi. Uni harakatga keltirish, o'zgartirish uchun birgina tabassum yetarli bo'ldi. "U deraza yonida uzoq turmadi. Bir payt miyasiga kelgan ajoyib fikrdan sevinib, qalqib ketdi. Allanimalarni tikib-bichib o'tirgan xotini bu holni sezmadi". O'sha kecha Boyxon quvonchdan uxlay olmadi. Ichidagi sevinch hislari ichiga sig'madi go'yo. Undagi ertangi kunga umid, ichishni tashlab yaxshi bir oilaning boshlig'i bo'lish hislari butun vujudini egallab oldi. "Boyxon bu kunni entikib kutgan edi. Miyasiga ajoyib fikr urilgan o'sha oqshomdan boshlab uch kun betinim o'zicha turli-tuman rejalar tuzdi. Hayajonlandi. Hovliqdi". Ayolining yuzidagi mayin tabassumni yana bir bor ko'rish uchun turmush o'rtog'ining tug'ilgan kunini eslab qolgani, aynan o'sha kunda uni xursand qilishni xohlagani ham Boyxonning ayoliga befarq emasligini, shu munis ayolga yaxshi umr yo'ldosh bo'lish uchun xohishi borligini va shu xohish yo'lida harakat qilayotganini bildiradi. Asar mobaynida qahramonda ichki konflikt hukm suradi. Asar boshidanoq qahramonga "Uzoq dashtda uloqib qolgan" ta'rifi beriladi va asar so'ngida ham u hamon shu holatda qolayotgan, hamon bir qarorga kela olmayotgan, go'yoki ikki yo'lning birini tanlay olmayotgan yo'lovchidek ko'rinadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ijodkorning voqeliklarga Badiiy psixologizm orqali yondashuvi uning badiiy mahorati sifatida baholanadi. Ruhiy psixologik holat va unga mos so'zlar qahramonni peyzajini ko'rsatishda ham katta ahamiyatga ega. Qahramon holatini anglashda bizga adabiyotning boshqa unsurlari, masalan, syujet, kompozitsiya yoki detallar emas, aynan Badiiy psixologizm yordam bermoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Normatov U. Janr imkoniyatlari. T., 1970.
2. Adabiyot nazariyasi, 2 jildli. T., 1978-79.
3. Adabiyot nazariyasi [Darslik]. T., 1986.
4. Adabiy turlar va janrlar, 3 jildli. T., 1991—92.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. 5-jild- "O'zbekiston" – 1981.